DUDUQLANISH NUTQ NUQSONINIG KELIB CHIQISH SABABLARI, KORREKSIYALASH YO'LLARI VA OLDINI OLISH USULLARI

FarDU o'qituvchisi
Isodullayeva I
FarDU talabasi ***Ergashova S***

Annotatsiya*: Ushbu ilmiy maqolada duduqlanish nutq nuqsonining psixofiziologik xususiyatlari, uning kelib chiqish sabablari hamda korreksiyalash va oldini olishning zamonaviy yondashuvlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqot jarayonida duduqlanishning biologik, psixologik va ijtimoiy-pedagogik omillar bilan bog'liqligi ochib berilgan. Shuningdek, duduqlanishning asosiy turlari, ularning namoyon bo'lish mexanizmlari hamda nutq faoliyatiga ko'rsatadigan salbiy ta'siri yoritilgan. Duduqlanishni bartaraf etishda qo'llaniladigan logopedik mashqlar, psixologik korreksiya usullari va tibbiy-pedagogik yondashuvlarning kompleks qo'llanishi samaradorligi asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar*: logonevroz, nutq nuqsoni, logopediya, nutq terapiyasi,tonik, psixologik korreksiya, nevrologik omillar, profilaktika,klonik, logopedik massaj.*

Аннотация*: В данной научной статье научно и теоретически анализируются психофизиологические характеристики заикания, его причины и современные подходы к коррекции и профилактике. В ходе исследования выявлена взаимосвязь заикания с биологическими, психологическими и социально-педагогическими факторами. Также освещены основные типы заикания, механизмы их проявления и негативное влияние на речевую деятельность. Обоснована эффективность комплексного применения логопедических упражнений,*

методов психологической коррекции и медико-педагогических подходов для устранения заикания.

***Ключевые слова**: логоневроз, дефект речи, логопедия, логотерапия, тоническое лечение, психологическая коррекция, неврологические факторы, профилактика, клонические нарушения.*

***Abstract**: This scientific article scientifically and theoretically analyzes the psychophysiological characteristics of stuttering, its causes, and modern approaches to its correction and prevention. In the course of the research, the relationship of stuttering with biological, psychological, and socio-pedagogical factors was revealed. The main types of stuttering, their mechanisms of manifestation, and their negative impact on speech activity were also highlighted. The effectiveness of the integrated use of speech therapy exercises, psychological correction methods, and medical and pedagogical approaches used to eliminate stuttering is substantiated.*

***Keywords**: logoneurosis, speech defect, logopedics, speech therapy, tonic, psychological correction, neurological factors, prevention, clonic.*

Nutq insonning tafakkuri, hissiyoti va ijtimoiy munosabatlarini ifodalovchi asosiy vositalardan biridir. Nutq orqali shaxs o’z fikrini bayon etadi, atrof-muhit bilan muloqot qiladi va jamiyatda o’z o’rnini topadi. Shu sababli nutqning normal rivojlanishi bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Nutqdagi har qanday buzilish esa bolaning psixologik holatiga, o’qish faoliyatiga va ijtimoiy moslashuviga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Nutq nuqsonlari ichida duduqlanish eng murakkab va keng tarqalgan buzilishlardan biri hisoblanadi. Duduqlanish nutqning sur’ati, ritmi va ravonligining buzilishi bilan namoyon bo’lib, tovushlar, bo’g’inlar yoki so’zlarning takrorlanishi, cho’zilishi hamda nutqiy tutilishlar orqali ifodalanadi. Ushbu nuqson ko’pincha maktabgacha va boshlang’ich maktab yoshida yuzaga keladi. Zamonaviy logopediya va psixologiya fanlarida duduqlanishni faqat nutqiy muammo sifatida emas, balki murakkab

psixofiziologik holat sifatida o’rganish tendensiyasi kuchayib bormoqda. Shu bois duduqlanishning kelib chiqish sabablari, uni korreksiyalash usullari va oldini olish yo’llarini chuqur ilmiy tahlil qilish dolzarb masala hisoblanadi.

Duduqlanish (logonevroz) bu nutq apparati mushaklarining spazmatik holati bilan bog’liq bo’lgan nutqning ravonlik buzilishidir. Ushbu holatda nutqiy nafas, ovoz chiqarish va artikulyatsiya jarayonlari o’zaro muvofiqlashmagan holda kechadi. Ilmiy manbalarda duduqlanish quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi:

—nutqning ritmik buzilishi;

—ixtiyorsiz nutqiy pauzalar;

—nutqiy faollikning pasayishi;

—ikkilamchi psixologik muammolar (qo’rquv, ishonchsizlik).

Duduqlanish odatda bolaning nutqi faol rivojlanayotgan davrida paydo bo’ladi va agar o’z vaqtida korreksiya qilinmasa, barqaror holatga aylanishi mumkin. Duduqlanuvchilarning shaxsiy xususiyatlarini ham tibbiy kuzatishlar yordamida ham tajriba psixologik metodikalari qo’llanish bilan tekshirish samaralidir. Ular yordamida xavotirli-badgumonlik, xususiyati, gumonsirash, ishonchsizlik, odamovilik, ruhiy tushkunlikka moyillik,nuqsonga nisbatan sust-mudofaa va mudofaa-tajovuzkorlik bilan ta’sir ko’rsatish hollari aniqlangan.

Duduqlanish mexanizmlarini psixolingvistik nuqtayi nazardan ko’rib chiqish ham e’tiborga molikdir. O’rganishning bu jihati duduqlanuvchi nutq talaffuzining qaysi pallasida muskullar tortishuvi yuzaga kelishini aniqlashni taqozo qiladi. Nutq kommunikatsiyalarining quyidagi bosqichlari ajratib ko’rsatiladi:

1) nutqqa (gapirishga) ehtiyojning borligi yoki kommunikativ maqsad;

2) bayon qilish fikrining ichki nutqda tug’ilishi;

3) bayon qilishning tovush orqali bajarilishi. Bu bosqichlar nutq faoliyatining turli tuzilishlarida o’z oqimining to’liq va uzunligiga ko’ra har

xildir. Lekin o'ylangan va bildirilgan fikrlar doimo chog'ishtiriladi. l.Yu. Ableyeva fikriga ko'ra, duduqlanish so'zlovchida kommunikativ maqsad, nutq tarkibi va tutilmay gapirish imkoniyati bo'lgani holda, uning nutqqa hozirlik ko'rgan paytida yuzaga keldi. Muallif nutq hosil bo'lishining o'z modeliga nutqqa tayyorlanish bosqichini ham kiritishini taklifetadi, bunda duduqlanuvchi kishida barcha talaffuz mexanizmi, uning hamma sistemalari: generatorli, rezonatorli va genetic sistemalar □buziladi□. Keyin to'rtinchi, yakunlovchi bosqichda aniq yuzaga keladigan g'ayri ixtiyoriy tortishishlar paydo bo'ladi. Duduqlanish muammosiga nisbatan turli nuqtayi nazarlami ko'rib chiqib, duduqlanishning paydo bo'lish mexanizmlari bir xil emas, degan asosiy xulosaga kelish mumkin. Ayrim hollarda duduqlanish murakkab nevrotik zaiflashuv sifatida e'tirof etiladi, u esa bosh miya qobig'idagi nerv jarayonining izdan chiqishi, qobiq va qobiq osti o'zaro munosabatlarining buzilishi umumiy nutqiy harakatlar (ovoz, nafas olish. artikulatsiya) sur'atining zaiflashuvi oqibati hisoblanadi. Boshqa hollarda □ noto'g'ri nutq refleksi oqibatida paydo bo'lgan turli genezlarda dastlabki yuzaga kelgan murakkab nevrotik zaiflashuv sifatida talqin etiladi Nutqning murakkab, o'ta funksional zaiflashuvi sifatida qarab chiqiladi. U umumiy hamda nutqiy dizontogenez va shaxsning disgarmonik rivojlanishi oqibatida namoyon bo'ladi. Duduqlanish mexanizmini markaziy nerv sistemasining organik o'zgarishi asosida (alqin qilish mumkin. Ammo har qanday vaziyatda ham uyg'unlikni tashkil qiladigan fiziologik va ruhiy buzilishlarni hisobga olish lozim.

Duduqlanishning kelib chiqish sabablari (etiologiyasi): biologik, psixologik va ijtimoiy omillar o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi.

Biologik (organik) omillar:Biologik omillar markaziy asab tizimi faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Ular quyidagilardan iborat: homiladorlik davridagi salbiy omillar (gipoksiya, infeksiyalar), tug'ruq jarayonidagi shikastlanishlar, bosh miya po'stlog'i va osti tuzilmalarining yetilmaganligi,

irsiy moyillik. Ushbu omillar natijasida nutqni boshqaruvchi nerv mexanizmlarining muvofiqlashuvi buziladi.

Psixologik omillar: Psixologik omillar duduqlanish rivojlanishida yetakchi o’rin tutadi. Kuchli qo’rquv yoki stress, oilaviy ziddiyatlar, hissiy zo’riqish, bolaning yuqori tashvishlilik darajasi. Ko’pincha duduqlanish bolada ruhiy jarohat natijasida birdaniga paydo bo’ladi va nevrotik xarakter kasb etadi. Ijtimoiy-pedagogik omillarz: Ijtimoiy muhit ham duduqlanish rivojiga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Noto’g’ri nutqiy muhit, haddan tashqari talabchanligi, bolani tez gapirishga majburlash, ikki tilli muhitda noto’g’ri tarbiya. Bu omillar bolaning nutq apparatiga ortiqcha yuklama beradi.

Moyillik sabablariga quyidagilar kiradi:

- ota-onalarning nevropatik kasallanishi (markaziy nerv sistemasining faoliyatini bo’shashtiruvchi yoki izdan chiqaruvchi nerv kasalliklari, yuqumli va jismoniy kasalliklar);

- duduqlanuvchining o’zidagi nevropatik xususiyatlar (tungi qo’rquv, enurez, kuchli qo’zg’aluvchanlik, his-hayajonli zo’riqish);

- konstitutsional moyillik (vegetativ nerv sistemasining kasallanishi va oliy nerv faoliyatining juda ham nozikligi, uning ruhiy shikastlanishga alohida duchor bo’lishi);

- nasliy buzilish (duduqlanish nutq apparatining tug’ma zaifligi asosida rivojlanadi, u avloddan-avlodga retsessiv alomat tarzida o’tib borishi mumkin). Agar tashqi muhit duduqlanishga salbiy ta’sir ko’rsatsa, ekzogen omillarning ta’sirini e’tiborga olish lozim;

- bosh miyaning turli davrlardagi rivojlanishida, ko’plab salbiy omillar ta’sirida shikastlanishi: ona qornidagi va tug’ma jarohatlanish, asfiksiya; postnatal yuqumli kasalliklar, turli xil bolalar kasalliklaridagi jarohatli va trofik-almashinuv buzilishlar. Ko’rsatilgan sabablar jismoniy va ruhiy sohalarda turli xil patologik o’zgarishlari keltirib chiqaradi. Nutq

rivojlanishining kechikishiga, nutqning zaiflashuviga olib keladi va duduqlanishning rivojlanishiga imkon beradi.

Nomuvofiq shartlarga quyidagilar kiradi:

-bolalarning jismoniy zaifligi;

-miya faoliyatining yoshga bog'liq xususiyatlari bosh miya katta yarimsharlari asosan, bolaning besh yoshga yetganida shakllanadi, aynan shu yoshda bosh miya faoliyatidagi funksional assismetriya yuzaga keladi. Ontogenetik jihatdan o'ta tabaqalashgan va kech yetilgan nutq funksiyasi, ayniqsa, nozik va zaif bo'ladi. Shu bilan birga, o'g'il bolalardagi nutq funksiyasining qiz bolalardagiga nisbatan kech rivojlanishi ulardagi nerv sistemasining zaiflashuviga sabab bo'ladi;

-nutqning jadal rivojlanishi (3□4 yoshda), bunda uning kommunikativ, idrok etish va muvofiqlashtiruvchi faoliyatlari kattalar bilan bo'ladigan muloqot ta'siri ostida tez rivojlanadi. Bu davrda ko'pgina bolalarda bo'g'in va so'zlarni takrorlash (integratsiya) kuzatiladi. U fiziologik xarakteriga egadir. Bolaning yashirin, ruhiy siqilishi, atrofdagilar bilan salbiy munosabatlar asosida tez ta'sirlanish; muhim talablar va uni anglash darajasi o'rtasidagi ziddiyat. Bola va kattalar o'rtasidagi ijobiy emotsional aloqalarning noto'kisligi:

-hissiyotli (emotsional) zo'riqish paydo bo'ladi, u sirtdan ko'pincha duduqlanish bilan nihoyalanadi. Harakat, ohang hissi, mimik-artikular faoliyat rivojlanishidagi yetishmovchilik.

Ilmiy adabiyotlarda duduqlanish quyidagi turlarga ajratiladi:

-nevrotik duduqlanish □ ruhiy travmalar ta'sirida yuzaga keladi;

-nevrozga o'xshash duduqlanish □ asab tizimi yetilmaganligi bilan bog'liq;

-klonik duduqlanish □ tovush va bo'g'inlarning takrorlanishi;

-tonik duduqlanish □ nutqiy tutilish va pauzalar ustunligi tarzida namoyon bo'ladi.

Logopedik ishlar duduqlanishni bartaraf etishda asosiy o’rin tutadi: nutq sur’atini sekinlashtirish, ritmik nutq mashqlari, bo’g’inlab o’qish, nafas mashqlari, artikulyatsion gimnastika. Ushbu mashqlar nutq apparati mushaklarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Psixologik korreksiya usullari: relaksatsiya mashqlari, autogen treninglar; nutqdan qo’rquvni kamaytirish, ijobiy motivatsiya shakllantirish.

Tibbiy yondashuv va sog’lomlashtirish ishlari: nevropatolog ko’rigi, fizioterapiya, massaj, kundalik rejimni to’g’ri tashkil etish.

Oila va ta’lim muassasasining roli:

-bolani qo’llab-quvvatlashi;

-tanqid va jazodan voz kechishi;

-nutqiy muhitni sog’lomlashtirishi lozim.

Duduqlanishning oldini olish yo’llari (profilaktika) ishlari quyidagilardan iborat: ruhiy barqaror muhit yaratish;

-yoshga mos nutqiy yuklama;

-erta diagnostika;

-logopedga o’z vaqtida murojaat.

Xulosa qilib aytganda duduqlanish nutq nuqsoni murakkab psixofiziologik buzilish bo’lib, u nutq apparati faoliyatining muvofiqlashuvi buzilishi natijasida yuzaga keladi va shaxsning nutqiy, psixologik hamda ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Markaziy asab tizimining funksional yetilmaganligi, perinatal shikastlanishlar, irsiy moyillik bilan bir qatorda ruhiy travmalar, stress holatlari va noto’g’ri tarbiyaviy yondashuvlar duduqlanish rivojida muhim o’rin egallaydi.

Shuningdek, duduqlanish jarayonida ikkilamchi psixologik muammolar tortinchoqlik, muloqotdan qochish, past o’z-o’zini baholash holatlari shakllanishi mumkinligi aniqlanadi. Shu bois korreksion ishlar faqat nutqni to’g’rilash bilan emas, balki shaxsning psixologik rivojlanishini qo’llab-quvvatlashga ham qaratilishi lozim. Ota-onalar, pedagoglar va

mutaxassislarning o’zaro hamkorligi bolaning nutqiy va ruhiy holatini yaxshilashda muhim omil bo’lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI:

1. M .Ayupova. Logopediya toshkent nashriyoti 2007
2. Волкова Л.С. Логопедия. – Москва: Просвещение, 2019.
3. Лалаева Р.И. Нарушения речи у детей. – Санкт-Петербург, 2018.
4. Mironova S.A. Logonevroz va uni korreksiyalash. – Toshkent, 2017.
5. Nurmatov SH. Logopediya asoslari. – Toshkent: Ўқituvchi, 2020.
6. Raҳmonov A. Bolalar nutqidagi nuqsonlar. – Toshkent, 2021.
7. Xasanova D. Maxsus pedagogika. – Toshkent, 2022.